

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2023
MAXSUS SON

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Э.Б.Ягьяева	
Дифференцированный метода обучения при изучении иностранного языка и организации самостоятельной работы студентов.....	114
М.К.Мавлюда	
O'qituvchi kompetensiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....	117
G.A.Asomiddinova	
Qahramon xarakterini yaratishda badiiy nutq imkoniyatlari va muallif mahorati.....	120
N.K.Abbasova, Z.Q.Xakimova	
Speech act as an important function of communication.....	125
Sh.R.Muydinov	
Linguoculturological description of zoonym composite partial similarities.....	128
M.Madaminova	
Exploring the persuasive power of publicistic style: utilizing proverbs and sayings in english lesson.....	130
Sh.M.Yusufjonova	
Frazeologizmlar taqiqi.....	134
Ш.И.Аскарова	
К проблеме языковой интерференции и билингвизма при изучении третичного языка.....	137
Ш.И.Аскарова	
К вопросу трансфера и интерференции при изучении немецкого после английского языка.....	141
Sh.Sh.Dadabayeva	
Tarjimada so'zning kontekstdagi ma'nosini aniqlash usullari.....	148
Sh.Sh.Dadabayeva	
Tarjima jarayonida vaziyatning o'rganilishi.....	152
Sh.Y.Usmonova	
Cognitive analysis of landscape terms in uzbek and english languages.....	159
Sh.Y.Usmonova	
O'zbek va ingliz tillarining terminologik tizimida landshaft terminlarining o'rni.....	162
Z.Sh.Pazilova	
Nemis xalqida dafn marosimining o'tkazilishi.....	167
Z.Sh.Pazilova	
O'zbek va nemis xalqlarida to'y bilan bog'liq shaxs nomlari.....	170
R.U.Axrorova	
Lingvomadaniyatshunoslik: lingvokulturema va logoeistema.....	173
O.O.Bobokalonov, R.U.Akhrorova	
Shifonemas in phraseological units related to the period of youth.....	178
R.U.Axrorova	
Fransuz ertaklarida yoshga oid reprezentlarning leksik-semantik va milliy-madaniy xususiyatlari.....	182
Z.M.Abdullaev	
Nemis tili ismlari motivlari va ism tanlashga ta'sir etuvchi omillar.....	185
Z.M.Abdullaev	
Nemis tilida atoqli otlar va ularning tasnif etilishi.....	188
I.R.O'rinboyev	
Ba'zi na'matak (<i>Rosa</i>) turlarining Farg'ona shahrida tarqalishi va dorivorlik xususiyatlari.....	190
I.D.Yakubov	
Separator-tozalagich qurilmasining parametrlari.....	193
M.Nazarov, A.T.Maxsudaxon	
Javdarni jadal texnologiyada parvarishlash.....	201
Ё.Г.Абдуганиев	
Получение и свойства производных перфторакриловой и перфторметакриловой кислоты.....	205
D.M.Ahmedova	
Ekologik munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari.....	215

TARJIMADA SO'ZNING KONTEKSTDAGI MA'NOSINI ANIQLASH USULLARI

METHODS OF DETERMINING THE MEANING OF A WORD IN CONTEXT IN TRANSLATION

МЕТОДЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ЗНАЧЕНИЯ СЛОВА В КОНТЕКСТЕ ПРИ ПЕРЕВОДЕ

Dadabayeva Shirinxon Shuxratovna¹¹Farg'ona davlat universiteti, PhD, katta o'qituvchisi**Annotatsiya**

Ushbu maqola so'zning ma'nolarini o'rganuvchi uch usul – ma'lumotlar nazariyasi tahlili, komponentli tahlil va ma'no postulatlarini turli misollar tahlili asosida ko'rsatilgan. Tarjima jarayonida tarjimon asiyat tilidagi so'zning kontekstdagi ma'nosini emas, balki so'zning o'z ma'nosini tushunib olishi tarjimada ushbu so'zning noto'g'ri tarjima qilishi kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Aynan ushbu tadqiqot shu kabi muammoni bartaraf etishga yordam beradi. Tadqiqotda quyidagi natijalar keltirilgan: ma'lumotlar nazariyasi tahlili so'zning to'liq ma'nosini bera olmaydi, u komponentli tahlil bilan birga foydalaniladi, ikki tahlil usuli so'zning kontekstdagi ma'nosini bera olmaydi. Uchunchi – ma'no shakllari tahlili usuli esa so'zning pragmatic va semantik xususiyatlarini aniqlay oladi va bu tarjimon uchun qulaydir.

Abstract

This article shows three methods of studying the meanings of words – reference theory, component analysis and postulates of meaning based on the analysis of different examples. In the process of translation, the fact that the translator does not understand the meaning of the word in the context of the original language, but the meaning of the word itself, causes problems such as the wrong translation of this word in the translation. It is this research that helps to overcome such a problem. The following results are presented in the research: reference theory cannot give the full meaning of the word, it is used together with the component analysis, the two analysis methods cannot give the meaning of the word in the context. The third - the method of analysis of meaning forms can determine the pragmatic and semantic features of the word, and this is convenient for the translator.

Аннотация

В данной статье показаны три метода изучения значений слов - теоретико-данный анализ, компонентный анализ и постулаты значения на основе анализа различных примеров. В процессе перевода тот факт, что переводчик понимает не значение слова в контексте языка оригинала, а смысл самого слова, вызывает такие проблемы, как неправильный перевод этого слова в переводе. Именно это исследование помогает преодолеть такую проблему. В исследовании представлены следующие результаты: теоретико-информационный анализ не может дать полного значения слова, он используется вместе с компонентным анализом, два метода анализа не могут дать значение слова в контексте. Третье – метод анализа форм значения позволяет определить прагматические и семантические особенности слова, и это удобно для переводчика.

Kalit so'zlar: *Tarjima, tajima jarayoni, so'z ma'nosi, kontekst, nutqiy akt. muloqot, ma'lumotlar nazariyasi, komponentli tahlil, ma'no shakllari tahlili.*

Key words: *Translation, translation process, word meaning, context, speech act. communication, reference theory, component analysis, analysis of meaning forms.*

Ключевые слова: *Перевод, процесс перевода, значение слова, контекст, речевой акт. коммуникация, теория данных, компонентный анализ, анализ смысловых форм.*

KIRISH

Tarjimonning eng dastlabki qo'rqularidan biri uning ma'nosi noma'lum bo'lgan so'zga uchrashidir. Ammo bunda eng katta muammo uning uchun so'zlar emas, balki ularning boshqa so'z bilan ifodalanadigan kontekstdagi ma'nosidir.

Ishtirokchilar tomonidan yaratilgan, aniq bir vaqt va makonda sodir bo'lgan, ma'lum bir mazmundagi nutqiy akt (muloqot) takrorlanmas va nodir hisoblanadi. Ammo nutq birliklari orqali ushbu holatlar maxsus bir skemalar orqali ular qayta ifodalanishi mumkin.[2;83] Masalan, "mushuk" so'zi yevropa tillarida bir skema – "felix" ma'nosini beradi, biroq har bir individ bu skemani ma'lum bir maqsad yoki holatda turli shakllarda berish mumkin. So'z umumiy bir ma'noga ega bo'ladi, ammo uni kontekstdagi ma'nolari turli shakllarda keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tarjima nazariyasidagi so'zning o'z ma'nosi emas, balki kontekstdagi ma'nosini aniqlash masalasi olimlar tomonidan o'rganilib, turli tahlillar misollar bilan keltirib o'tilgan. So'z orqali ifodalangan hodisa bilan mohiyat o'rtasidagi bogliqligi haqidagi masalaga yunon faylasuflari

tomonidan ikki xil o'ziga xos qarash mavjud. Xususan, Platon so'z va mohiyat o'rtasidagi aloqa tabiiy va u olamning o'zaro tizimining tashkil etishini[2;84] ko'rsatadi. Ammo Aristotel bu tabiiy bog'lilik asossiz ekanligini[3;58] aytadi. Bunga taqlid so'zlarning obyekt bilan hech qanday aloqasi yo'qligi isbot sifatida ko'rsatiladi.

Ko'plab konvensialistlar esa so'z shakli va uning referenti tabiiylikdan ko'ra ko'proq inson tomonidan shakllantirilishi degan fikrni[4;54] bildirib o'tadi.

F.de.Sossyur ham o'z tadqiqotlarida so'zning mohiyat bilan bog'liqligiga oid ko'plab tahlillarni ko'rsatadi[1].

1950 yillarda antropologlar so'z ma'nolariga atomli va molekulari yondashuvni rivojlantirishdi. Ushbu nazariyaning asosiy maqsadi so'zning umumiy semantik xususiyatlarini ochib berish edi. Ushbu nazariya muvafaqiyatsizlikka uchrashiga qaramay, hozirda tillarni o'zaro farqlashga yordam beruvchi keng foydalaniladigan usullardan biridir.[2;86]

Aynan so'zning kontekstdagi ma'nosini o'rganuvchi uchta usul (yondashuv) mavjud:

1. Ma'lumotlar nazariyasi tahlili.
2. Komponentli tahlil.
3. Ma'no shakllari[2;86].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yuqoridagi so'z ma'nolarini o'rganuvchi ushbu yondashuvlarni birma-bir ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.


Dastlabki yondashuv so'z va uning mohiyati o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi. (So'z X mohiyat Y ni ifodalaydi tarzida).

F.Sossyur ushbu so'z va mohiyat o'rtasidagi munosabatni quyidagi chizma bilan beradi[1]:
Lisoniy belgi mohiyat



Bu tahlil tillardagi so'zlarning semantik, leksik strukturalari bilan psixologik shakllarni parallel tarzida kelishini ko'rsatadi.

Ammo tarjima jarayonida ushbu shakllarni xotira orqali boshqa tilga o'tkazilishi o'ta mavhum, sababi har bir konsept har bir xalqda, hatto har bir shaxs tomonidan turlicha qabul qilinadi. Yuqoridagi tahlil turli tillarda quyidagicha belgilanishi mumkin:



Ushbu model turli tillarda hodisani tushunish va bir so'zni eslashda tarjimon uchun foydalidir.

Komponentli tahlil yondashuvida har bir so'z ma'no atomlaridan tashkil topgan degan fikrga asoslanadi.

Kompozitsion tahlilda so'zlarning o'ziga xos farqli xususiyatga ega bo'lgan semantik elementlarning mavjud yoki mavjud emasligi ko'rsatiladi. Masalan,

Ingliz tilidagi *man, woman, boy, girl* kabi so'zlar shaxslarni ifodalaydi, lekin ushbu so'zlarning jinsi farqlanadi.

Man – human, adult, male

Woman – human, adult, female tarzida. Olimlar ushbu tahlilga F.de.Sossyur tahliliga qo'shishni tavsiya etadi, bunda ularning fonetik, sintaktik, morfologik, semantik tahlillari birgalikda keladi:

Man – mæn, countable noun, men of plural form, human, adult, male kabi.


Yuqoridagi misolda ko'rinib turibotiki, bu tahlil so'zning talaffuzi, qaysi so'z turkumiga oid ekanligi, o'z ma'nosidan tashqari, boshqa qanday ma'noga ega ekanligini ko'rsatadi. Undan tashqari u asliy tilda so'zning semantik mazmunini yaxshi tushunish uchun tarjimonga foydalidir.

Ushbu tahlilga qo'shimcha qilish maqsadida uni tarjima tildagi holatini ham berishni maqsadga muvofiq deb bildik:

Man – mæn, sanaladigan ot turkumiga oid va ko'pligi men, shaxsga oid voyaga yetgan erkak jinsiga xos bo'lgan so'z bo'lib, uning o'zbek tilidagi tarjimasi kishi yoki inson so'zlariga to'g'ri keladi.

Tarjimashunoslikda ushbu tahlil o'zini deyarli oqlamadi, sababi ba'zi so'zlar tarjimasida shu kabi tahlillar yetarli emas. Masalan, ingliz tilidagi *clock, watch, hour, time* kabi so'zlarni tarjima qilishda ushbu tahlil yetarli emas. Ushbu so'zlarni tarjimasi kontekstsiz amalga oshmaydi. Ikkinchidan, tahlil qilinayotgan biron-bir so'zning boshqa bir til uchun asossiz holatga aylanishi. Ya'ni ushbu tahlil o'z chekloviga ega ekanligi. Masalan, ingliz tilidagi *metals, gold, silver, mile, found, yard* kabi so'zlar tarjimasi boshqa tilde o'z asosini yo'qotadi. *Mile* so'zi o'zbek tilida maqbul variant emas, balki metr yoki kilometr kabi masafani bildiruvchi so'zlar ma'quldir.

Tarjimon yuzlanuvchi eng asosiy muammolardan biri konseptlar orasidagi bog'liqlikni ko'rsatishdir. Aynan, uchinchi yondashuv ma'no shakllarida berilayotgan konvensiyalar orqali ma'no ma'noga bog'liq bo'ladi. Bunda umumiy va xususiy tomonlardan kelib chiqib, quyidagi 3 usulni berish o'rinli.



Ko'rsatilgan dastlabki usulda bir konsept ikkinchisini taqozo etadi. Masalan, *Mushuklar* sut emizuvchi turkumiga kiradigan hayvonlar kabi. Bu usul tarjimonga umuman qiyinchilik tug'dirmaydi.

Ammo ikkinchi sinonim usuli tarjimon uchun biroz muammoli bo'lib, tilda mutlaq sinonim topish juda qiyin, deyarli bunday sinonim turi ilojsizdir. O'zbek tilidagi *yashirmoq – berkitmoq* kabi so'zlar o'zaro yaqin sinonimlik munosabatga ega. Ammo ingliz tilidagi *hide va conceal* so'zlari berkitmoq ma'nosida, fe'l shaklida keladi. Bunda *hide* so'zi ot ma'nosida kelib, asosan, norasmiy uslubda foydalaniladi. Ushbu holatda tarjimonga kontekst yordam beradi. Aynan, tillarda konseptlarning o'zro farqlarga ega ekanligi ushbu usuldan foydalanishni taqozo etadi. Masalan, tarjimondan *chinor, archa, qarag'ay* kabi konseptlar daraxt ma'nosini beradi, ammo ular bir-birida farqlanadi, misol uchun, chinor archa daraxtidan biroz katta ekanligini bilish talab etiladi.

Uchinchi usul antonimik munosabat asosida bo'ladi, unda konseptlarning umumiy emas, balki xususiy tomonlari ko'rsatiladi.

Antonimik munosabatning to'rt turi ko'rsatiladi:

- 1) klassifikatsion;
- 2) o'lchovga oid;
- 3) nisbiy;
- 4) o'zaro zid bo'lgan tushunchalar.

Dastlabki tur 3 xil ko'rinishda bo'ladi:

- 1) ikkilik – bunda o'zaro zid bo'lgan ikki tushuncha o'zaro antonomiya munosabatda bo'ladi.

Masalan,

yaxshi – yomon;

dead – alive kabi

- 2) bunda ikkidan ortiq tushunchalar o'zaro zidlanadi:

millimeter, santimetr, kilometer va meter

ushbu so'zlar o'lchov jihatdan o'zaro farqlanadi.

- 3) iyerarxik tur – davriy yoki ochiq va yopiq bo'lgan tushunchalar farqlanishi. Masalan,

Days of the week yoki *months of the year*

Ikkinchi turda o'lchovlar orasidagi zidlik munosabati hisoblanadi. Masalan, *u ko'proq tirik* yoki *tilla oldingisan ko'ra tillaroq* kabi o'lchovlar berish mumkin emas. Bularning o'rniga *tilla oldingisidan ko'ra og'irroq* deyish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchi turda nisbiy farqlar ko'rsatiladi:

o'quvchi – o'qituvchi;

o'g'il – qiz;

oldin-keyin kabi.

To'rtinchi turda terminlar o'zaro sinonim bo'lganda, ulardan biri ikkinchisiga qaysidir bir holatda antonimik munosabatda bo'ladi. Masalan, *some* va *any* aslida sinonim, ammo grammatik jihatdan ular o'zaro bir-biriga antonimdir.

Yoki bo'lmasa, *some* va *all* terminlari ular o'zaro antonimik munosabatga ega, biroq aynan ikkinchi so'zning inkor shakli birinchining sinonimik variantini berishi ham mumkin, Masalan,

Some teachers can not practice with their transability;

Not all teachers can practice with their transability.

Ushbu ikki misolda sinonimik munosabatga ko'proq urg'u berilmoqda.

XULOSA

Yuqorida ta'kidlanganidek, tarjimon so'zning o'z ma'nosini emas, balki uning kontekstdagi ma'nosini aniqlashi uning eng asosiy vazifalaridan biridir. So'z ma'nosini o'rganishdagi ushbu uch usul tarjimonga so'zning asliyat tilidagi kontekstda kelgan ma'nosini (haqiqiy ma'nosi) tushunishga va uni tarjima tilda o'sha ma'noda bera olishga yordam beradi. Bu esa tarjimaning sifati – asliyigini saqlab qoladi. Umuman, tarjimon uchun ushbu tahlillardan alohida foydalanish yetarli emas. So'zning ma'nosini o'rganishda ushbu uch tahlildan bir vaqtda foydalanish o'rinlidir. Aynan shundagina tarjimon so'zning kontekstdagi ma'nosini to'liq anglaydi va hech qanday qiyinchiliksiz ushbu ma'noni tarjima tilda bera oladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. F.de.Sossyur. Cours de linguistique generale. – Paris, 1916.
2. R.T. Bell. Translation and translating: Theory and practice. – New York: Longman, 1991. – P.83-90.
3. Ревзин И. И., Розенцвейг В. Ю. Основы общего и машинного перевода. - - С. 58.
4. Торсуева И.Г. Теория высказывания и интонация//Вопросы языкознания. – 1976. –№2. - С. 54.